

IJTIMOIY TARMOQLARNING O'RNI

Abdisattorova Lola Olim qizi*Qarshi shahar Axborot texnologiyalar
menejmenti universiteti talabasi*

Ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda kundalik hayotimizning bir qismiga aylanib bormoqda. Har bir inson hayotida ijtimoiy tarmoqlarni tanqidiy baholay olishi zarur. Instagram, Facebook, Telegram, Tik Tok kabi platformalar nafaqat insonlar o'rtasida aloqani osonlashtirish balki ular orqali yangiliklardan xabardor bo'lish, biznes qilishga shu bilan birgalikda insonlarning o'z fikrini erkin bildira olishiga ham imkon yaratmoqda. Ammo bu platformalar hayotimizning bir qancha jabhalarida zararli bo'lishi ham mumkin. Hech birimizga sir emaski ko'pchilik insonlar ijtimoiy tarmoqlarga keragidan ortiq vaqt sarflamoqdalar. Shuningdek ijtimoiy tarmoqlar ba'zi bir hollarda insonlarning shaxsiy xavsizligiga zarar bermoqda. Hattoki bu yoshga uyg'un bo'lmagan yoki tushunilmagan ma'lumot va videolarni ko'rish orqali ba'zilarimizning psixologik muammolarga duchor bo'lishimizga olib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanish bir necha bo'limlarga ko'ra bo'lishi kerak: yosh, aql, tushuncha, ma'lumotlarning zaruriyati va

Ijtimoiy tarmoqlar allaqachon hayotimizning ajralmas bir bo'lagiga aylanib ulgurgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil kundalik muammolarimizni yechishimiz va masofaviy ish yuritish imkoniyatiga ega bo'lib kelmoqdamiz. Ko'plab tadbirkorlar, talabalar va shu kabi boshqa kasb egalari dunyo bo'ylab kasbdoshlari yoki o'sha sohadagi dunyotanigan professorlardan ular tayyorlagan kontentlar orqali o'z bilim va malakalarini oshirib kelishmoqda. Bundan tashqari ko'plab odamlar o'zlarining mutaxassisligi bo'lgan sohalarda foydali videolar yoki maqolalar orqali boshqa odamlarga nafaqat yordam berishmoqda balki bundan o'zlari ham pul topishmoqda. Masalan chet tillarini bilish bugungi globallashib borayotgan hayotimizning talabi bo'lib bormoqda. Bu orqali ko'plab Ingiliz, rus va shu kabi chet tillarini yaxshi biladigan insonlar bu qobiliyatlarini boshqalarga o'rgatishmoqda hamda daromad qilishmoqda. Nafaqat til va tadbirkorlikda balki ko'plab kundalik sohalarda masalan pazandachilikdan tortib duradgorchilikka ham kontentlar topishimiz mumkin. Eng asosiysi ijtimoiy tarmoqlar orqali uzoqdagi yaqinlarimiz bilan nafaqat osongina bog'lana olamiz balki ko'rib gaplashishimiz ham mumkin. Bundan tashqari kunimizdagi yangiliklar va dolzarb muammolardan hoxlagan paytimizda tezkor xabardor bo'lib kelmoqdamiz. Umuman olganda ijtimoiy tarmoqlar insonlarning kimlik hayotini yengillashtirib kelmoqda.

Albatta, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy taraflarini ham rad eta olmaymiz. Bu platformalarning yomon tomonlaridan biri ko'pchilikning ularga bog'lanib qolishidir. Bu esa yoshlarga o'z ustilarida ishlashga, jismoniy faol bo'lishlariga halaqit berib kelmoqda. Bundan tashqari ba'zi odamlar hakerlik qurboni bo'lib qolishayotganligi ham afsuski sir

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

emas. Ko'pchilik hollarda insonlar ijtimoiy tarmoqlarda o'zlari haqidagi hamma ma'lumotlarni ulashishi orqali ularga hakerlar rasmlari, oilasi, yolg'on xabarlar yoki shu kabi boshqa sabablar bilan tahdid qilishmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanish insoning o'z qo'lida. Ammo bu masala ham bir nechta tamoyillar asosida bo'lishi kerak. Masalan foydalanuvchining yoshi ham shu tamoyillardan biri bo'lishi kerak. Ota-onlar balog'atga yetmagan bolalarining nimalarni Va kimlar kimlarni ko'rayotganliklarini nazorat qilib turishlari kerak. Ikkinchi tamoyil aql va tushuncha bo'lishi kerak. Agar ko'rayotgan kontent haqida unda tushuncha bo'lmasa, bu usha insonda usha mavzuga nisbatan noto'g'ri tushunchalarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Va oxirgisi ma'lumotning zaruriyatidir. Muhim bo'lmagan ma'lumotlarni ko'rish ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolish ehtimolini oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bu platformalarning yaxshi Va yomon tomonlarini hosobga olib shuni aytishiyiz mumkin ki, ularni qanchalik xavfli yoki xavfsizligi insonga bog'liqdir.

